



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-iyul oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatda 947,5 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 54,1 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,1 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 474,7 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,0 foizni va norasmiy sektorlar tomonidan esa 418,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,9 foizni tashkil etdi.






Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Chortoq tumanida (62,1 mlrd.so'm yoki 144,4 %) - Chortoq tumanida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylarni qurish ishlari bajarilgan;
- Norin tumanida (62,5mlrd.so'm yoki 119.0 %)- Norin hududida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;
- Mingbuloq tumanida (32,4 mlrd.so'm yoki 132,0 %)- Mingbuloq tumani hududida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Yangiq'o'rg'on tumanida (67,1 mlrd.so'm 67,3%)- qayd etildi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 20,0 % ini tashkil etdi, Namangan tumanida 10,8 % ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,3 % ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 4,5 % ni, Chust tumanida ushbu ko`rsatkich 6,2 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Mulkchilik shakllari


Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 890,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,9 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 foiz punktga kamaydi.





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.